OLIY TA’LIMDA INGLIZ TILINI O ‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Ismailova Fotima
Namangan davlat chet tillari institute magistratura bitiruvchisi

Received: 27.10.2025
Revised: 28.10.2025
Accepted: 29.10.2025

Kalit so‘zlar:
ingliz tili, innovatsion metodlar, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, kompetensiya, CLIL.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini oliy ta’lim muassasalarida samarali o‘qitishning zamonaviy metodlari tahlil qilinadi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv ta’lim usullari, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar va CLIL metodikasining afzalliklari yoritilgan. Maqolada ilg‘or tajribalar hamda O‘zbekistondagi ta’lim islohotlari bilan bog‘liq nazariy va amaliy jihatlar ham o‘rganiladi.

Калит сузлар:
английский язык, инновационные методы, интерактивное обучение, цифровые технологии, компетенция, CLIL.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы эффективного преподавания английского языка в высших учебных заведениях. В частности, освещаются преимущества использования информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов обучения, компетентностного подхода и методики CLIL. В статье также анализируются передовой опыт, а также теоретические и практические аспекты, связанные с образовательными реформами в Узбекистанея.

Keywords:
English language, innovative methods, interactive learning, digital technologies, competence, CLIL.

Abstract. This article analyzes modern methods of teaching English effectively in higher education institutions. In particular, the advantages of using information and communication technologies, interactive teaching methods, competency-based approaches, and the CLIL methodology are highlighted. The article also examines advanced practices as well as theoretical and practical aspects related to educational reforms in Uzbekistan.

Kirish. XXI asrda ingliz tili jahon miqyosida ilm-fan, texnologiya va diplomatiya tili sifatida muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida chet tillarini, xususan, ingliz tilini chuqur o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning “Yoshlarni chet tillarini

`

puxta o‘rganishga keng jalb etish” haqidagi qarorlari natijasida barcha bosqichdagi ta’lim muassasalarida mazkur soha ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini samarali o‘qitish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab etadi. An’anaviy yodlash metodlari bugungi kunda yetarli natija bermayotgani sababli innovatsion texnologiyalar va interaktiv usullar asosiy vosita bo‘lib bormoqda.

Asosiy qism.

Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samaradorlikni oshiradi. Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida quyidagi yo‘nalishlarda ilg‘or tajribalar kuzatilmoqda:

1. Interaktiv metodlar:

- Rol o‘ynash (role-play**)** mashqlari orqali talabalar kommunikativ vaziyatlarga moslashadi.
- Debat va munozaralar orqali tanqidiy fikrlash va nutqiy kompetensiya rivojlanadi.
- Muammoli vaziyatlar yechimi (problem-solving) orqali tilni qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi.
- Gamifikatsiya usuli orqali talabalarda motivatsiya oshiriladi.

2. Raqamli texnologiyalar:

- Duolingo, Quizlet, Kahoot kabi ilovalar yordamida so‘z boyligini oshirish.
- Moodle va Google Classroom platformalari orqali darslarni interaktiv tashkil etish.
- Sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar (ChatGPT, Grammarly) orqali yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish.

3. CLIL metodikasi:

- CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodida ingliz tili boshqa fanlar (masalan, biologiya, tarix, informatika) bilan uyg‘unlashtirib o‘qitiladi.
- Bu yondashuv talabalarning ham til, ham kasbiy sohada bilimini oshiradi.
- O‘zbekiston sharoitida CLIL metodikasini tatbiq etishda darsliklar yetishmasligi, o‘qituvchilarning malakasi kabi qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da, istiqbolda bu yo‘nalish keng rivojlanishi kutilmoqda.

4. Amaliy tajriba:

- Namangan, Toshkent va Samarqand oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qitishda “blended learning” (an’anaviy va onlayn ta’lim uyg‘unligi) tajribasi qo‘llanmoqda.

`

- Talabalar o‘quv jarayonida mustaqil izlanishga, onlayn resurslardan foydalanishga o‘rgatilmoqda.

Ushbu innovatsion metod va vositalar ta’lim sifatini oshirish, talabalarni global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitishda innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish talabalarning til bilish salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar, kompetensiyaga asoslangan ta’lim va CLIL yondashuvi talabalarni global maydonda raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantiradi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida mazkur yondashuvlarni kengroq tatbiq etish ta’lim sifati va xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Nation, I.S.P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5117-sonli qarori, 2021 yil 19 may.
5. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.

`